AMIR TEMUR DAVRIDA DINIY-MAFKURAVIY KURASHLAR

Mirzoulug‘ Mirsaidovich MAMASALIYEV
dotsent
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
Qarshi, O‘zbekiston
e-mail: entin_2977@mail.ru
ORCID: 0000-0003-3145-7380

Annotatsiya

Maqolada Amir Temurning davlat boshqaruviga kelishi, Movarounnahrda XIV asrda Amir Temur tomonidan vujudga keltirilgan davlatchilik g‘oyasi, tarixiy qarama-qarshiliklar muvozanatini ta’minlash, turli, ba’zida o‘ta ziddiyatli mafkuraviy qarama-qarshiliklarni uyg‘unlashtirish siyosatini ochib berishga harakat qilingan.

Tayanch so’zlar: mafkura**,** din, davlat, boshqaruv, Sohibqiron, e’tiqod, siyosat.

РЕЛИГИОЗНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ БОРЬБА ВО ВРЕМЕНА АМИРА ТЕМУРА

Мирзоулуг Мирсаидович МАМАСАЛИЕВ
Доцент
Каршинский инженерно-экономический институт
Карши, Узбекистаон

Аннотация

В статье делается попытка раскрыть приход эмира Тимура к государственному управлению, идею государственности, заложенную в Мавераннахре Амиром Тимуром в XIV веке, политику обеспечения баланса исторических противоречий, гармонизации различных, порой крайне противоречивых идеологических противоречий.

Ключевые слова: идеология, религия, государство, управление, Сахибкиран, вера, политика.

Amir Temurning eng yuksak xususiyatlaridan biri – bu milliy va diniy qadriyatlardan oqilona foydalanish va shular asosida yaxlit siyosatni shakllantirish mahoratida namoyon bo‘ladi. Holbuki, dinning mohiyatida inson qadr-qimmati, uning sha’ni, or-nomusi, imon-e’tiqodi va orzu-umidlari ifodasi yotar ekan, jamiyatda ushbu qadriyatlar yuksalgan sari adolatli siyosatga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib boradi.

Davlatlarda jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirishda, xalqni maqsad sari safarbar qilishda, tinchlik va farovonlikni ta’minlashda diniy qadriyatlarga

suyanadi. Chunki davlat tirik organizm sifatida g‘oyalardan ozuqa oladi, uning hayotbaxshligi bilan istiqbol maqsadlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu borada jamiyatda qadriyatlarni mujassamlashtirgan siyosat mohiyatan inson tomonidan borliqni anglash orqali kechadi. Olamning mukammal sirli mo‘jizasi insonning aql-tafakkuri bilan anglanar ekan, mavjud borliq garmoniyasi din va davlat faoliyati o‘rtasidagi muvozanatning ta’minlanishida namoyon bo‘ladi. Bu ikki kutbdagi bir xosiyat boshqaruvda xalq bilan mushtarak maqsadlar uyg‘unligida ifodalanadi. Masala shundan iboratki, insoniyat tarixida din va davlat munosabati muammosi asrlar davomida anchayin ziddiyatli evrilishlar bilan kuzatilgan jarayon hisoblanadi. Mohiyat bizningcha, bir tomondan dinning siyosiylashtirilishida bo‘lsa, ikkinchi tarafdan hokimiyatni mutlaqlashtirishda. Ikkala hodisada ham zug‘um mavjud. Ular turli «izm»larning paydo bo‘lishiga va oqibatda butun bir umumiy e’tiqoddagi millatlarning parokandalikka yuz tutishiga sabab bo‘lgan.

Olamning mukammal yaralishi uning muvozanatida. Bu qonuniyat haqiqati o‘z qadriyatlariga suyangan jamiyatdagina rivojlanishi mumkin. Shuning uchun din qadriyat sifatida, davlat idora sifatida mushtarak maqsadlarga kelishi bilan jamiyatda muvozanat vujudga keladi. Ya’ni, mazmun va shaklning uyg’unlashuvi bilan olamga xos uyg‘unlik vujudga keladi. Amir Temur hazratlari bu borada «Men har doim islom bayrog‘ini baland ko‘tardim va imon tarqatishni o‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men imon bilan qudrat bir onadan tug‘ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam imonga tayangan qudrat buyuk bo‘ladur» [1;11], degan fikrni aytadi. Bu fikrning mohiyati «imon» mafkura «qudrat», «hokimiyat» va «davlat» tushunchalarida talqin etish ham mumkin. Davlat hokimiyatining qudrati baland bo‘lishi uchun uning imoni butun bo‘lsa, buyuklik vujudga keladi.

Insoniyat davlatchilik tarixida qanday yuksalishlar bo‘lgan bo‘lsa, inson manfaatlari va davlat mushtarakligidan hosil bo‘lgan. Ikkalasining uyg‘unlashuvi jarayonida siyosatning falsafasi vujudga keladi. Shu jihatdan olib qaralganda, barcha zamonlarda diniy ta’limotning, ayni paytda olimu fuzalolar hamda

mashoyixlar davlat tomonidan ta’qib etilishining ikkita ziddiyatli sabablari mavjud bo‘lgan.

Birinchidan, ular o‘z ilmlari bilan hokimiyat egalari uchun doimo muxolifatdagi taraflar hisoblangan bo‘lsa, manfaatlar asosida qurilgan hokimiyat irodasi esa xukmronlik qilishning birdan-bir manbai sanalgan. Ilm haqiqat, ma’no izlovchi yo‘l sifatida manfaatdorlikka qurilgan maqsadlarga zid keladi. Shuning uchun muxolifatni bartaraf etishning ikkinchi sababi hokimiyatning cheksiz im-koniyatlarida vujudga kelgan. Hokimiyatning cheksiz irodasi qadriyatlarga bo’ysunmasa, u o‘z tabiatiga ko‘ra zo‘ravonlik manbaiga aylanib boraveradi. Aynan ana shu nuqtada din va davlat ziddiyati vujudga keladi.

Siyosiy ta’sir xususiyati barcha dunyo dinlariga xos bo‘lib, turli tarixiy davrlar va davlatlarda bu holat turlicha kechgan. Dinning siyosiylashuvi doimiy jarayon bo‘lib, to jamiyatda boshqaruv bor ekan, davom etaveradi. Biroq islomning siyosiylashuvi haqida tom ma’noda gapirib bo‘lmaydi, chunki islomda din va siyosatga bo‘linish yo‘q [5;40]. Bu o‘z navbatida, Amir Temur boshqaruv faoliyatida qanday yondashuvlarga ega bo‘lganligini o‘rganishda hamon ayrim bahsli qarashlarga oydinlik kiritishni taqozo qiladi. Shunday ekan, mushohada uchun savol tug‘iladi, 150 yil mug‘ul istilosidan xo‘rlangan, tahqirlangan, dini va qadriyatlari toptalgan Movarounnahr xalqi qanday qilib Amir Temurning 35 yillik hukmronlik davrida buyuk bir imperiya poydevorini bunyod etishga muyassar bo‘ldi? 27 ta davlatni birlashtirgan, to‘ra-tuzuklar tartibotini vujudga keltirgan madaniyatning zaminida qanday g‘oyalar yotgan? Inson qudrati va bunyodkorlik salohiyatining manbalari qanday qadriyatlardan oziqlangan? Xalqning mushtarak manfaatlari qanday qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan? Xalqni jipslashtirgan yaxlit mafkuraning ozuqa mezonlari nimalardan iborat bo‘lgan?

Amir Temur davridagi diniy-mafkuraviy kurashlar nihoyatda keskin ziddiyatlar bilan kechgan. Bu kurashlar Movarounnahr-Qoshg‘ar bilan Yettisuv va Sharqiy Tyan-Shan o‘rtasidagi diniy ixtiloflar sifatida qaraladi. XIII–XIV asrlarda bu kurash bir tomondan Movarounnahr va Qoshg‘arda eronliklar bilan ittifoqdosh bo‘lgan madaniy musulmon turklarga tayangan beklar (umaro) va xonlar, boshqa

tomondan Yettisuv va Uyg‘ur o‘lkasidagi buddist va xristian uyg‘urlar hamda Yettisuvning madaniy g‘ayrimuslim turklarga suyanuvchi ko‘chmanchilar, Chingizxon o‘g‘illari o‘rtasida shiddat bilan davom etdi. Musulmon (musulmonlikni qabul qilgan turklar) hamda shomonizm va buddizm diniga asoslangan ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul an’analari to‘qnash keldi. Chig‘atoy xonlari o‘zlariga markaz sifatida ba’zan Toshkent, Buxoro va Qarshi hududini, ba’zida Ili bo‘yidagi Olmaliqni, ba’zida esa sharqroqdagi Beshbalikni tanlashardi. Turkiston ikki kuch, ikki madaniyat o‘rtasida qoldi. 1334–1338-yillarda Olmaliq atrofida yashovchi chig‘atoy xonlari Buzan va Chenkshi o‘zlari buddist va o‘g‘illari xristian bo‘lib, islom dushmani sanalardi. Ularni ispaniyalik, burgundiyalik va iskandariyalik xristian missionerlar o‘z ta’siri ostiga olgan, Olmaliqda xristian yepiskopligi tashkil topgan.

Musulmonlarga tayanib hokimiyatni qo‘lga kiritgan Ali sulton 1339-yil barcha ruhoniylarning boshini oldirdi. Bu orada Oltin O‘rdada, ya’ni Jo‘ji ulusida O‘zbekxon (1212–1240) islomni qabul qilib, o‘z ulusidagi turk va mo‘g‘ul qavmlarning ham musulmon bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Undan so‘ng chig‘atoyliklar orasidan tasavvuf yo‘liga kirib, hatto shayxlik martabasiga ko‘tarilgan Xalil Sulton Turkistonning janubida va Tug‘luq Temurxon (1348–1362) shimolda g‘ayrimuslim unsurlarni batamom yo‘q qilishdi.

Shu tariqa Chingiziylar hukmronligi Movarounnahrda islom va islom madaniyatining Turkiston shimoliy hududlariga ham yoyilishi bilan yakunlandi. Biroq bu masala shu bilan hal bo‘lib qolmadi. Madaniyatlar va hayot tarzi kurashlari har ikki tomon uchun umumiy bo‘lgan islom dini ichidagi mazhab va tariqatlar tarzida davom etdi. Garchi mo‘g‘ullar e’tiqodlariga ko‘ra musulmon hisoblanishsada, davlat boshqaruvida majusiy turk-mo‘g‘ul an’analariga asoslanishardi. Mo‘g‘ullarning muhim ishlaridan biri Turkistonda Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatining siyosiy ishlariga aralasha boshlagan din va shariatni bu ishlardan uzoqlashtirish bo‘ldi. G‘ayrimuslim shomon va buddistlarning mag‘lubiyati bu din va eski aqidalarga asoslangan hayot tarziga ega xonlarning (Chingiz nevaralarining) e’tibor va nufuzini pasaytirdi. Ayni paytda Shimoliy

Turkistonning turk avliyolari boshchiligida rivojlanayotgan sodda «turk islomiyati» (Xalil Sulton, Bahovuddin Naqshband) bilan o‘lkaning ko‘proq tojiklar yashaydigan janubidagi eron-islom shayxlari, tojik ruhoniy aristokratlari (Xalil Sulton tomonidan o‘ldirilgan Termiz shayxlari) o‘rtasida kurash boshlandi.

Janubiy Turkistondagi mo‘g‘ul beklari tojik zodagonlar bilan birlashadi (Amir Qozog‘on). Ayni paytda Xuroson va Movarounnaxrdagi shaharlik tojik aholi hukmron mo‘g‘ul sulola hamda harbiy zodagonlarga qarshi sinfiy ahamiyatga ega kurash boshladi. 1365-yil Samarqandda Sarbadorlar davlati tashkil topdi. Ya’ni, diniy, madaniy va sinfiy kurashlardan foydalana oladigan kishi uchun qulay sharoit paydo bo‘ldi. Islom asosida tarbiyalangan, musulmon tojiklar yordamida mahalliy turklarni boshqara oladigan, ayni paytda hoqonlik an’analariga ko‘ra xalq manfaatiga suyana oladigan mo‘g‘ul begi janubning kuchi yordamida shimolni qo‘lga kiritishi va turk-mug‘ul harbiylari hamda Chingiz naslidan kelgan sulola vakillari bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘ya olsa, shimolning (ko‘chmanchilarning) kuchi bilan janubni ushlab turishi mumkin bo‘lgan. Bu vazifani barlos urug‘idan chiqqan Amir Temur muvaffaqiyat bilan uddalaydi [3;85]. Ushbu ziddiyatlar silsilasida hokimiyat jilovini qo‘lga olish, ma’naviy tarqoqlik holatida mushtarak manfaatlarni yuzaga chiqaradigan, jipslashtiradigan siyosiy mafkuraga ehtiyoj tug‘iladi. Diniy g‘oyalarga asoslangan mafkura tig‘i bilan Amir Temur Movarounnahrni bosqinchilardan ozod qilgan bo‘lsa, ayni paytda, mo‘g‘ullar tomonidan oyoqosti qilingan islom dinining qadr-qimmatini ham tiklashga erishadi. Natijada barcha turkiy elatlar Sohibkiron atrofida birin-ketin birlasha boshlaydilar.

Turonliklarning erkka bo‘lgan intilish va irodasini tarbiyalagan, avvalo, mashhur ajdodlar vatanparvarligi, so‘ngra dini islom va shu yurtda dunyoga kelgan to‘rt buyuk tariqat bo‘ldi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida shakllanish bosqichida bo‘lgan Futuvvat (javonmardlik, jo‘mardlik), Yassaviya, Xojagon (keyinroq Naqshbandiya) va Kubraviya tariqatlari namoyandalari ta’sirida xalq e’tiqodini poklab, ma’nan o‘zidan tuban turuvchi dushman ustidan ruhiy g‘alabaga erishdi [6;25]. Mohiyat shundaki, mafkura siyosat sifatida jamiyatda unga ergashuvchi

yetakchi kuchlar mavjud bo‘lgan. Sohibqiron bu masalaning yechimini topmasdan hokimiyatga kelishi amrimahol edi. Lekin shu kungacha Amir Temur davlat mafkurasini tashkil qilgan siyosiy g‘oyalar to‘g‘risida jo‘yali fikrlar yo‘q. Birov uni futuvvatni himoya qilgan desa, boshqasi Yassaviya, ayrimlari Xojagon ixlosmandi sifatida yoritadilar va baholaydilar [8;6]. Boshqa tadqiqotchilar mazkur masalani ko‘tarmaslikni afzal biladilar. Natijada shu davr ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari ochilmay kelmoqda.

Amir Temurning hayoti va amaliy faoliyatida jo‘mardlik qoidalariga rioya etganligi, futuvvatchilarning xislat-fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirganligi to‘g‘risida dalillar bor. Bunga «Tuzuklar»dan ko‘p misollar keltirish mumkin. Jo‘mardlik tarafdorlari nazdida dunyo boyligi emas, Alloh rizoligi va inson qadri ustun turgan. Shu bilan birga, Amir Temur tasavvufning Yassaviya tariqatiga ixlosi baland bo‘lganligi haqida ham dalillar yo‘q emas. Buning sababi bir tomondan «... Yassaviya ta’limoti o‘zining mustahkam intizomi, pok islomiy mazhabiy, irfoniy-tasavvufiy g‘oyalari bilan Turkiston xalqlarini mo‘g‘ullar zulmi va istibdodiga qarshi jipslashtirib tarbiyalab borgan» [8;6] ligida bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviyning avliyolik martabasidan ma’naviy, ruhiy oziq, kuch olib kelganligi [6] to‘g‘risidagi fikrlarda asos bor.

Sohibqiron o‘z bilim va e’tiqodini mustahkamlash borasida shariatga va olimlar tarbiyatiga suyanadi. Olimlarning jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishidagi o‘rnini o‘z ehtiyoji sifatida his qilgan hamda ularning salohiyatlarini davlat qurilishi asoslarini mustahkamlashga yo‘naltira olgan. Natijada din va ilm-fan g‘oyalarini o‘zida birlashtira olgan yuksak ma’rifat sohibiga aylanadi. Ibn Arabshohning aytishicha, «Amir Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyidu shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to‘la-to‘kis izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom mukarram ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, o‘z ikromi, hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o‘z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs xam yuritar ediki, bu insofu hashamat bo‘lardi» [2;69].

Shundan ayon bo‘ladiki, Amir Temurning yuksak ma’rifatiga diniy ilmlar va zamonasining buyuk olimlari yaratgan ta’limotlarning ta’siri, shubhasiz, katta bo‘lgan. Xususan, axloq va tasavvufga doir Shayx Said Ali Hamadoniy (1384-yil vafot etgan), Naqshbandiya tariqatining asoschisi Shayx Xo‘ja Bahovuddin (1389-yil vafot etgan), shoir Lutfullo Nishopuriy (1384-yil vafot etgan), Shayx Kamoliddin Xo‘jandiy (1390-yil vafot etgan), «Temurnoma»ni yozgan shoir Ahmad Kirmoniy hamda boshqa yurtdagi olimlar tomonidan yozilgan asarlar, shubhasiz, Jahongir siyosiy faoliyatida beqiyos ahamiyat kasb etgan. Aynan ana shu bilim uning islomni to‘g‘ri tushunishida, ayni paytda, dinni mutaassiblikdan farqlay olish, ilm orqali ijtimoiy hayot rivoji qonuniyatlarini anglashga yordam bergan.

“Bu hodisa dastavval odamlar, xususan, yoshlar o‘y-fikrlarida ham ravshan ko‘zga tashlandi. Mamlakatda imoni butun, islom diniga sodiq, shu bilan birga bilimga o‘ch, mashaqqatli mehnatga shay, kasb-hunar shaydosi, buyuk bunyodkorlik ishlariga astoydil bel bog‘lagan yangi avlod o‘sib yetishgan edi. Ana shu tarzda Naqshbandiya tariqati g‘oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylanadi» [9;19]. Darhaqiqat, Sohibqiron faoliyati davrida adolatli davlat boshqaruvi yukini ko‘tara oladigan zabardast va o‘ziga xos yangi (siyosiy eliktorat) qatlam o‘sib yetiladi. Bu davlat ravnaqi va uning muvozanati uchun juda katta ijtimoiy omil bo‘lib shakllanadi.

Dinning jamiyat hayotidagi roli, uning shaxs tomonidan ma’naviy va axloqiy qoida normalarini anglashdagi o‘rni alohida e’tirofga loyiq ekanligini ta’kidlash joiz. Bunda dunyoviylik ham o‘z qarashlarini ifodalagan holda uni hayotga tatbiq etishga intiladi. Ilm-fan esa siyosat, iqtisod va madaniyat bilan bir qatorda, ijtimoiy muammolar bilan shug‘ullanish asnosida insonni o‘rab turgan olamni o‘zgartirishga harakat qiladi [4;34]. Bunday siyosiy faoliyat barcha uchun umumiy bo‘lgan din va davlatning bir maqsad (xalq manfaatlari) yo‘lidagi muvozanatini ta’minlanishiga olib keladi. Bu muvozanat tamoyillari «Temur tuzuklari»da «Dinu shariat tuzugi» bobida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, «O‘z

tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida kurilmas, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, kudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshaydirkim, ko‘rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yohud har xil qalang‘i-qasang‘i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo’q uyga o‘xshaydi», [7;75] deydi.

Davlat dinu tartib (qadriyatlar) asosida qurilmasa va uning mazmuni qonunlarga bog‘lanmasa, unday saltanatning qudrati va tartibi bo‘lmasligi tayin. Bobomiz bu o‘rinda «dinu tartib» deganda ijtimoiy tartibotni, «to‘ra-tuzuk» deganda esa hokimiyat boshqaruvi bilan bog‘liq qonunlarni nazarda tutadi. Ular bir-biriga uyg‘un bo‘lgandagina jamiyat va davlat rivojlanadi. Jumladan, AQShlik islomshunos B.Lyuis: «Islom tashkil topganidan boshlab musulmonlarda din va davlat uzluksiz bog‘liqligini ko‘rsatib keladi, buni yozma manbalar, tarix hamda tajriba asoslaydi» [10;133], deb fikrimizni tasdiqlaydi. Boz ustiga, siyosatshunos A.X.Yakub siyosat va dinning aloqadorligi islom dini prinsiplarida jamlangan ideal jamiyat yaratishdek fikrlar bilan mos keladi, deb ta’kidlaydi.

Movarounnahr xalqlari ma’naviy va madaniy asoslarini islom dini shakllantirib kelganligini hisobga olsak, davlat boshqaruvining huquqiy asoslariga shariat qonunlarining ta’sir ko‘rsatishi tabiiy ekanligiga iqror bo‘lamiz. Ayniqsa, mo‘g‘ul istilosining islom qadriyatlariga zulm ko‘rsatib kelishi yurtda ozodlik harakatining, mustaqillik g‘oyalarining vujudga kelishida diniy omillarga yangicha ma’no beradi, u ichki siyosiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biriga aylantiriladi. Bunday jarayonlar xalqni el-yurt ozodligi kurashiga safarbar qilishning mafkuraviy poydeorini yaratadi.

Xulosa qilishimiz mumkunki, dunyoviy fan ilohiy ilmning tarkibiy qismi ekanligiga shubha qolmaydi. Amir Temur yaratgan siyosat falsafasining mohiyatini teran anglasak, bugungi imkoniyatlarimiz ham kengayib boradi. Lekin bu qarashlar o‘z intihosiga yetmasdan, aksincha, bizni yangi izlanishlarga da’vat qiladi. Mazkur da’vat milliy davlatchilik ta’limotimizning manbalarini izlash, tadqiq qilish va bugungi siyosiy-ijtimoiy hayotimizning tarkibiga singdirib borishda islom dinining muhim ahamiyatini belgilab beradi. Shunday ekan, milliy tiklanishdan milliy

yuksalishga borishning birdan-bir yo‘li qadimiy qadriyatlarimiz asosidagi din va mafkura masalalaridagi ta’limotlarning falsafiy-nazariy negizlarini, ularning o‘zaro aloqador qonuniyatlarini tadqiq etishdan iborat. Ular zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirishda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashda, rivojlanishning barqaror istikbollarini tatbiq etishda, millatlar va dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlashda bunyodkor g‘oyalarga aylanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li. – Тошкент: Nur, 1992.
2. Arabshoh, Ibn. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotla- ri). 2-kitob. – Toshkent: Mehnat, 1992.
3. Валидий З. Современный Туркестан и его недавняя история. Т.1. – Стамбул, 1947.
4. Колесников А. Ал-Афгани //Ислам: Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1999.
5. Muhammadsidiqov Muxammadolim Muhammadroziq o‘g‘li. Afrika arab davlatlarida dinning siyosiylashuvi va uning siyosiy jarayonlarga ta’siri: siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferat. – Тошкент: Халқаро Ислом академияси, 2018. – 40 b.
6. Mukimov З. Amir Temur tuzuklari. – Самарқанд: СамДУ, 2008.
7. Temur tuzuklari. – Тошкент: Shodlik, 2018.
8. Usmon O. Vaxdat sharobin ichdim... (Yassaviya tariqati). //Muloqot, 1991. – № 6.
9. G‘oipov N. Amir Temur davri madaniyati. – Тошкент: G‘.G‘ulom, 2001.
10. Lewis B. The Return of Islam // Religion and Politics in the Middle East. - Westview Press, 1981.-P.133-154.